

Abdullayeva Ra'noxon Nodirjon qizi

TDPU tayanch doktoranti

Email: ranoa7100@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-1578-480X

[Tel:93.6430002](tel:93.6430002)

NUTQIDA OG'IR NUQSONI BOR BOLALARDA BOG'LANGAN NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar nutqining rivojlanishi va bolaning o'ziga xos faoliyati, nutqiy ko'nikma malakalarini shakllanish jarayoni, shu bilan birga artikulyatsion, ovoz va aqliy qobiliyatlarida kuzatiladigan kamchiliklar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: nutq, dizartriya, kognitiv, motor, qobiliyat, metod

АННОТАЦИЯ: В данной статье описано развитие речи детей с тяжелыми речевыми дефектами и специфика деятельности ребенка, процесс формирования речевых навыков, а также наблюдающиеся недостатки артикуляции, голоса и умственных способностей.

Ключевые слова: речь, дизартрия, когнитивные, двигательные, способности, метод.

ABSTRACT: This article describes the development of speech in children with severe speech defects and the characteristics of the child's activity, the process of forming speech skills, as well as the observed violations of articulation, voice and mental abilities.

Keywords: speech, dysarthria, cognitive activity, tool, ability, method.

KIRISH. Inson til boyliklarini egallab borgani sari umri davomida o'z nutqini ham shakllantirib boradi. Har bir davr uning nutqiy rivojlanishiga muayyan yangiliklarni kiritib boradi. Nutqni egallashning muhim pog'onalari bolaning maktabgacha bo'lgan davriga to'g'ri keladi. Nutq kishilarning tug'ma qobiliyati bo'lmay, bolalar o'sib, rivojlangan sayin nutq ham asta-sekin shakllanib, mukammallashib boradi.

Bolalar nutqining maromida bo'lishi uchun bosh miya po'stidagi nutq markazi to'liq rivojlangan bo'lishi, ularning sezgi a'zolari: eshitish, ko'rish, ta'm bilish, hid bilish, teri sezgisi ham yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Chunki sezgi a'zolariatrof-muhit bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Agar bola yangi taassurotlar olib turmasa, uning harakatlari va nutqi uchun sharoit yaratib berilmasa, bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi tormozlanadi. Sog'lom bola ilk yosh davrida ehtiyojini guvranish, gugulash kabi nutqning sodda ko'rinishi, bir yoshlariga kelib esa dastlabki so'zlar orqali qondiradi. Uning nutqi dastlab atrofidagi kattalarning nutqiga taqlid qilish asosida rivojlanadi. Dastlab bola o'z xoxish va fikrlarini aniq

grammatik tizimdan mustasno bo'lgan alohida so'zlar yordamida ifoda etsa, 2 yoshlarga yaqin nutqi til tizimi, uning qonuniyatlariga asoslangan holda tarkib topa boshlaydi. U til tarkibiga oid hech qanday qonun-qoidalarni bilmasada, so'zlarni hech bir xatosiz turlaydi, tuslaydi, so'z birikmalarini tuza oladi, xatto-ki, so'z birikmalari qonunlariga mos ravishda mutlaqo yangi so'zlarni tuzadi. U tilning murakkab tizimini eshitish yordamida o'zlashtiradi: talaffuz malakalari – ko'pgina so'zlarning tovush tarkibini, ulardan foydalanishni o'zlashtiradi, so'zlar va

gaplarning grammatik jihatdan o'zgarib borishi va hosil bo'lishi bilan bog'liq holda yuzaga kelayotgan ma'nolarning mazmunini tushuna boshlaydi. Nutq dastlab ijtimoiy hodisa, muloqot vositasi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, asta-sekin atrof olamni anglash, faoliyatni rejalashtirish vositasiga aylana boradi. Bola ulg'aygan sari murakkab bo'lgan til birliklarini egallaydi: lug'atni, frazeologik birikmalarni o'zlashtiradi, so'z tuzilishi, so'z o'zgarishi va so'z birikmasi, shuningdek, turli-tuman sintaktik birliklar qonuniyatlarini egallab boradi. Tilning ushbu vositalaridan u murakkablashib borayotgan bilimlarini o'zgalarga yetkazish, faoliyati jarayonida atrofni o'rab turgan insonlar bilan muloqotga kirishish uchun foydalanadi. Nutqni tushunish, bola hali so'zlamasdan avval sodir bo'lib, o'z rivojlanishida turli bosqichlar hajmiga ko'ra o'sib borish va sifat jihatdan o'zgarib boruvchi jarayonlarni bosib o'tadi. Nutqni tushunish deb ataluvchi jarayon tovush signaliga nisbatan reaksiya berish emas, balki uning ma'nosiga bo'lgan munosabatni bildiradi. 2-3 yoshdagi bolaning faol nutqi uning tajribasidan kelib chiquvchi va muloqot doirasidagi nutqdan iborat bo'lsa-da, uning nafaol nutqi nafaqat undovchi (topshiriqli) nutqni idrok etishni, balki atrof olamni idrok etish vositasi bo'lgan hikoya-nutqni ham tushunish imkonini beradi. 2 yoshga kirgan bolaning faol lug'at zahirasi 250-300 so'zni tashkil etadi. Bu davrda bolaning ma'noli nutqi ham rivojlanib boradi. U fikrlarini bir necha so'zlardan iborat bo'lgan sodda gap orqali yetkazishga erishadi. 3 yoshga kirgan bolaning faol lug'atining tarkibi 800-1000 ta so'zni tashkil etsa, 4 yoshga kirganida 1500-2000 ta so'zni, 5 yoshga yetganida 2500-3000 ta so'zni tashkil etadi. Nutq bolaga faqatgina atrofdegilar bilan muloqotga kirishish uchungina emas, balki, eng avvalo, o'z ehtiyojlarini qondirish, atrof olamni anglash, o'z xatti-xarakatlarini rejalashtirish uchun vosita, uni egallash

voqelikni anglash usuli sanalgani bois, bolaning nutqiy faoliyati, o'zgalalar bilan muloqoti va o'z fikrlarini bildirishi uchun yetarli sharoit yaratish muhim hisoblanadi. Bola tomonidan nutqning o'zlashtirilishi o'z ichiga turli-tuman ko'rinishdagi bir necha bosqichlarni oluvchi murakkab jarayon bo'lib, dastlabki bosqich o'z ichiga murojaat etilgan nutqni tushunish (nafaol nutq)ni oladi. Ushbu davrning amaliy ko'rinishi bolaning aytilgan so'zga javoban xatti-harakatini bildiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Nutqiy rivojlanish quyidagi nazariy yo'nalishlarga asoslanadi:

L.S. Vygotskiy – nutqning psixologik va ijtimoiy mohiyatini ta'kidlab, nutq tafakkur bilan chambarchas bog'liqligini tushuntirgan.

A.R. Luriya – nutq rivojlanishi neyropsixologik asoslarini o'rgangan va miya faoliyatining nutqqa ta'sirini tadqiq qilgan.

M.M. Koltsova – nutq rivojlanishida mayda motorika va psixomotor jarayonlarning o'rni borligini aniqlagan.

Nutqiy rivojlanishda og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar nutqiy muloqotda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar fonetik-fonematik, leksik-grammatik va kommunikativ nutq darajalarida namoyon bo'lishi mumkin. Bunday bolalarda bog'langan nutqni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik va logopedik yondashuvlar zarur. Og'ir nutq nuqsoniga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik-korreksion ishlar tizimi bosqichma-bosqich va kompleks yondashgan holda olib boriladi. Og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bunday bolalar nafaqat lingvistik qiyinchiliklarga, balki ijtimoiy va emotsional muammolarga ham duch kelishadi. Shuning uchun psixologik yondashuv individual va kompleks tarzda olib borilishi kerak. Logopedik yondashuv esa faqat logoped bilan cheklanmay, balki ota-onalar va pedagoglar ham bu jarayonda ishtirok etishlari kerak. Oilada bola bilan doimiy muloqot qilish, mashqlarni uyda davom ettirish va nutqiy muhitni rivojlantirish katta

ahamiyatga ega. Og'ir nutq nuqsonlari bor bolalarda bog'langan nutqni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Bu jarayonda pedagoglar, logopedlar va psixologlar hamkorlikda ishlashlari kerak. Nutqiy rivojlanish nafaqat lingvistik, balki psixologik va fiziologik jihatdan ham qo'llab-quvvatlanishi zarur. To'g'ri metodika va doimiy mashg'ulotlar orqali bolalarning bog'langan nutq ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Logopedik yondashuv quyidagi yo'nalishda olib boriladi.

So'z boyligini kengaytirish, bolalarga yangi so'zlar o'rgatish va ularni faol qo'llash. Bola bilan suhbat jarayonida oddiy gaplardan foydalanish, ikki-uch so'zdan iborat gaplar tuzish. Sekin asta murakkab gaplar shakllantirish, gaplarda bog'lovchi vositalar yordamida bog'langan fikrlarni ifodalash. Matnni anglash va qayta hikoya qilish, oddiy matn mazmunini tushunish va izchillik bilan hikoya qilish. Mustaqil fikr ifodalash, voqealar, tasvirlar va real hayotiy tajribalar asosida mustaqil hikoya tuzish.

Bog'langan nutqni shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. Vizual va audial materiallardan foydalanish – suratlar, videolar va hikoyalar orqali fikrni aniq ifodalash.
2. Hikoya tuzish va qayta hikoya qilish – rasm, mavzuli ko'rgazmali qurollar yordamida hikoyalar yaratish.
3. Nutqiy o'yinlar va drammatizatsiya – ro'llarga bo'linib o'ynash orqali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.
4. Savol-javob va muhokamalar – bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirish.
5. Kitob o'qish va tahlil qilish – matnni tushunish va qayta hikoya qilish orqali nutqiy izchillikni shakllantirish.
6. Qo'l motorikasini rivojlantirish – chizish, loydan shakllar yasash, mozaika yig'ish kabi mashg'ulotlar bilan bog'langan nutqni rivojlantirish.

Bog'langan nutqni rivojlantirish uchun maxsus logopedik mashg'ulotlar tashkil etilishi zarur. Logopedlar quyidagi texnikalardan foydalanadilar:

Artikulyatsion gimnastika – og'iz va til mushaklarini rivojlantirish.

Nutqiy nafas mashqlari – tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganish.

Mantiqiy bog'liqlikni rivojlantirish – gap tuzish va hikoya qilish mashqlari.

Dastlabki yozma nutq ko'nikmalari – so'zlarni yozish va o'qish orqali bog'langan nutqni mustahkamlash.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abidova N.Z. Maxsus psixologiya(tiflopsixologiya) /Машғулотлик/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta - maxsus ta'lim vazirligi. T.: "Barkamol fayz media", 2017 y. - 83 b.
2. Ayupova M.Y. Logopediya /Машғулотлик/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta - maxsus ta'lim vazirligi. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2007 y. - 43 b.
3. Musayeva N.S. "Aqli zaif o'quvchilarda verbal va noverbal muloqotga kirishish ko'nikmalarini ta'lim jarayonida rivojlantirish"
4. Mo'minova L.R., Amirsaidova SH.M. va boshqalar. Maxsus psixologiya/Машғулотлик/ T.: 2013 y.T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2013 y. - 153 b.